

Qashqadaryoda televizor ishlab chiqarilmoqda



Prezident Shavkat Mirziyoyev Qarshi shahridagi «Buyuk turon» kichik sanoati zonasida bo'ldi.

Bu yerda hozircha 2 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, 500 dan ortiq ish o'rni yaratilgan. Joriy yil oxiriga qadar yana 2 ta loyiha ishga tushiriladi va umumiy ish o'rnlari soni 1 ming 500 taga yetadi.

O'tgan yili faoliyat boshlagan "Alp Texno Servis" mas'uliyati cheklangan jamiyati yiliga 120 ming dona televizor va monitorlar ishlab chiqarish quvvatiga ega. Korxona JVC, TCL, Zimmer brendlaringin auditidan o'tib, shu nomlar ostida tashqi bozorga chiqmoqda. O'tgan yili 3 million dollar mahsulot eksport qilingan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkichni 6 million dollarga yetkazish reja qilingan.

Bu yerda 70 ta ish o'rni yaratilgan. Yaqinda plata terish hamda plastik qismlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi va yana 30 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Prezident elektrotexnika mahsulotlari, ularni ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishdi. Korxona ishchilarini bilan suhbatlashdi.



Manba